Foyda = (100 m gazlamaning tannarxi*1 yilda ishlab chikarilgan maxsulot) – (1 yilda ishlab chikarilgan maxsulot*1 m gazlamaning ulgurji baxosi)

III. HAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIGI BO'LIMI

3.1. Ishlab chiqarish muhitining metrologik sharoitlari

Ish jaraslarining va atrof muhitning ishchilar organizmiga ta'sirini urganadigan fan mexnat gigisnasi deyiladi. Mexnat gigienasini qullash natijasida qulay sharoitlarni yarata oladigan, mehnat unumdorligini oshira oladigan, kasbiy kasalliklarni kamaytira oladigan yoki butunlay yuk; qila oladigan sanitariya, gigiena va davolash profilaktik tadbirlari ishlab chiqiladi.

Ma'lumki, ish jarayonida kishi organizmiga tashqi muhit salbiy ta'sir qilishi, ayni paytda ayrim a'zolar charchashi ham mumkin. Organizmning charchashi ikki xil buladi:

tez charchash, bu ishga kunikma hosil qilinmaganda yoki ogir jismoniy ish bajarishdan kelib chiqadi. Bundan charchash ish tugagandan sung tezda utib ketadi.

sekin-asta rivojlanib boruvchi charchash, mehnat qobiliyatining asta-sekin pasayishiga olib keladi. Bu xil charchash uzoq vaqt va hamisha bir xil (monoton) ishlarni bajarish natijasida yuzaga kelib, kishi organizmini puturdan ketkazadi.

Ish joylaridagi mikroiklim omillarni — harorat, nisbiy namlik, havoning tezligi hamda atmosfera bosimi tashkil etadi. Bunday muhit kishi organizmiga salbiy ta'sir qilib, uni sovutib yoki qizitib yuboradi. Bundan tashqari organizmdan chiqadigan issiqlik kishi bajarayotgan ishning jadalligiga ham bogliq.

Kishi organizmining me'yoriy harorati 36—37°S buladi. Organizm uzi uchun zarur bulgan haroratni ta'minlab turish qobiliyatiga ega. Organizmning bu xususiyati haroratni rostlash" deb ataladi. Masalan, biz sovuqsak kaltiraymiz, bu muskullarning ish bajarishi natijasida energiya chiqarishidir. Qizib ketsak, terlaymiz, bu ortiqcha issiqlikni tashqi muhitga berish va shu orqali organizm haroratini ma'lum miqdorda saqlab turishdir.

Ma'lum og'irlikdashi jismoniy mexnat bilan band bo'lgan kishi o'zini yaxshi his qilishi, ya'ni u qizib ketmasligi yoki sovqotmasligi uchun mikroiklim sharoitlari ma'lum darajada bir –biri bilan o'zaro bog'liq bo'lishi kerak. Bunday sharoitlarni

komfort sharoitlar deyiladi. Bu sharoitlarni yaratish GOST 12.1 005-76 “Ish zonasining havosiga umumiy sanitariya – texnika talablari” bilan belgilanadi.

Berilgan ish turi uchun komfort sharoit issiqlik balansi ta'min etilgandagina bo'lishi mumkin.

TSex havosining harorati yuqori bo'lganda qon tomirlar kengayib, teriga qon me'yoridan ko'p kela boshlaydi va atrof muxitga issiqlik uzatish birmuncha ko'payadi. Bu hol tsex havosining 30-35⁰S dan yuqori bo'lganda to'xtaydi. Kishi terlaydi, buning natijasida organizm uchun zarur bo'lgan tuzlar ham ter bilan chiqib ketadi. SHuning uchun issiq tsexlarda sal sho'rlangan gaz suvlar beriladi.

TSexdagi havo harorati pasayganda, qon tomirlar torayib, teiga qonning kelishi susayadi va tananing tashqi muhitga issiqlik berishi kamayadi. SHunday qilib, kishi o'zini ish sharoitida yaxshi his qilishi uchun harorat, nisbiy namlik va havo harakati tezligining ma'lum uyg'unligi zarur ekan.

Taning haroratini rostlashda tsex havosining namligi katta ta'sir ko'rsatadi. Yuqori nisbiy namlik terning bug'lanishining kamayishiga olib kelsa, juda past nisbiy namlik nafas yo'llari shilliq pardasining qurib qolishiga olib keladi. Namlikning eng maqbul qiymati 40-60 % deb qabul qilingan, lekin to'qimachilik korxonalarida texnologik jarayon talablari nisbiy namlikning o'zgarishiga olib keladi. Ayni paytda har qanday sharoitda ham birinchi navbatga inson salomatligi, uning mehnatini muhofaza qilish muammosi qo'yilishi kerak. Ish joylarida havoning harakati ish sharoitini yaxshilashning muhim omillaridan hisoblanadi. Issiqlik yuqori bo'lgan tsexlarda havoning harakati organizmdan chiqadigan issiqlikni atrof muhitga berilishini yaxshilaydi va aksincha sovuq tsexlarda organizmga salbiy ta'sir qiladi.

Havoning odam uchun sezilarli minimal tezligi 0.2 m/s hisoblanadi. Yilning sovuq paytlarida havoning tezligi 0.2-0.5 m/s, issiq kunlarida esa 0.2-0.1 m/s bo'lii tavsiya etilgan. Issiq tsexlarda bu tezlik 3.5 m/s gacha oshirilishi mumkin. tsexda

havo tezligini tanlashda uning texnologik jarayonga xalaqit bermasligini va zararli moddalarni uchirib tsexga tarqatmasligini ham hisobga olish kerak[53].

Davlat sanitariya nazoratining tavsiyasiga ko'ra ish joylarida yo'd qo'yish mumkin bo'lgan havo harakatining tezligi ish joyining haroratiga quyidagicha bog'lanadi.

TSexlarda toifasi turlicha bo'lgan ishlarda mikroiklim sharoitining komfort qiymatlari har xil bo'ladi.

TSex havosini tabiiy yul bilan shamollatishdan tashkari, ichkaridagi havo harakatining farki hisobiga yoki binoni aylanib utayotgan shamolning statik bosimining uzgarishi hisobiga buladi. Agar havoni almashtirish binodagi kurilish konstruksiyalarining nozichligi, darcha yoki teshiklar ork.ali amalga ohsa, bunday shamollatish — tabiiy shamollatish deb ataladi. Agarda shamollatish uchun maxsus tuynuk va deflektorlar urnatilgan bulsa, bunday shamollatish aeratsiya deb ataladi. Tabiiy shamollatish ob-xavo sharoitiga boglik. Issiklik kup mikdorda ajra-lib chiqqanida, tsex havosi sun'iy yoki mexanik usulda shamollatiladi.

Mexanik shamollatish ventilyatorlar bilan amalga oshiriladi. Ventilyatorlar asosan ikki xil buladi: tsentrobejnyy (markazdan qochma) va osevoy (uq buylab yunalgan). Ular uz navbatida xosil qiladigan bosimiga karab: past bosimli — 1000 n/m gacha, urta bosimli — 3000 n/m gacha va yuk.ori bosimli — 12000 n/m gacha bulinadi. Tuk,imachilik sanoati tsexlarida toza havoni almashtirishda asosan past va urta bosimli ventilyatorlar ishlatiladi. CHangli z^avoni yoki paxta, jun va boshka tolali materiallarni havo transporta vositalarida tashishda urta va yuk.ori bosimli ventilyatorlar ishlatiladi.

Mexanik shamollatish uch turli buladi:

SHamollatishning uzatuvchi sistemasi, ya'ni tashkaridan olingan sof xavoni tsexga uzatib berish. Bunda tashki xavo qabul k.iluvchi shaxta 1 ork.ali utib, fil'tr 2 da tozalanib, konditsioner 3 da sovutiladi yoki isitiladi va namligi me'yorlashtiriladi, xamda ventilyator 4 ork.ali havo beruvchi teshiklar 5 dan utib ish joylariga uzatiladi.

Bu sistemaning kamchiligi, mashinalardan chikayotgan zararli moddalar (chang, issik havo, gaz va hk.) deraza, eshik va kurilish konstruksiyalaridagi teshiklardan ixtiyoriy holatda tashkariga chikib ketadi.

2. SHamollatishning suruvchi sistemasida esa, havo ish joylaridan ventilyator 4 yordamida xavo tozalagich 7 ga utadi va undan shaxta orkali atmosferaga chikarib yuboriladi.

Bunda tashkaridan kelayotgan xavo hech kanday tayyor-garliksiz (tozalanmasdan va me'yorlashtirilmasdan) kiraveradi. Bundan tashkari bu sistemada tsexlarda havoning siyraklashuvi kuzatiladi. Bu esa ish joylarida yelvizaklarni keltirib chikarib ishchilarni kasalga chalinishiga olib keladi.

3. Uzatuvchi — suruvchi shamollatish sistemasi (1 v-rasm) mukammal sistema bulib, tsexga kelayotgan xavo fil'tr 2 da tozalanib, konditsioner 3 da me'yorlashtiriladi. Surib olingan xavo esa, xavo tozalagich 7 da tozalanib, atmsoferaga chikarib yuboriladi. Tapııı xavo harorati past bulganda issiklikni tejash maksadida kupincha tozalangan xavo kanal 8 ork.ali yana uzatuvchi sistemaga, ya'ni konditsioner 3 ga yuboriladi. Kanal 8 retsirkulyatsiya (kayta ishlatish) kanali deyiladi.

TSexlardagi xavoning tozaligi ishchilar salomatligini saqlashda katta ahamiyatga egadir. Ishlab chikarish jarayonida tsexlarda xavoga kishi organizmiga zararli bulgan gaz, chang bopıııı moddalar ajralib chikadi. Kishi bunday havodan nafas olganda yukori nafas yullari kichiydi va kishi uzi xohlamagan xolda yuzaki nafas oladi, bu esa upka faoliyatiga salbiy ta'sir kiladi va turli kasalliklarni keltirib chikaradi.

TSexlarda changlarning mavjudligi kuz shillik pardalarini kichishtirib konyuktivit kasalligini keltirib chikaradi. Bundan tashkari chang zarrachalari tuberkulyoz tayokchalarini va zararli bakteriyalarni tashuvchi vositadir. U lampalar ustiga utirib, tsexdagi yoruglikni kamaytiradi, bu esa ishchilar faoliyatiga va sogligiga ta'sir kiladi.

Ishlab chikarish tsexlari ish zonalarida xavosidagi zararli moddalarning yul kuysa buladigan kontsentratsiyasi GOST 12.1. 005—88 bilan belgilanadi.

Kishi organizmiga ta'siri buyicha zararli moddalar 4 sinfga bulinadi: 1-sinf — favkulotda xavfli, 2-sinf — yuqori darajada xavfli, 3-sinf — mu'tadil xavfli, 4-sinf — kam darajada xavfli.

Xavfli zararli moddalar mikdori ish kuni davomida ishchi sogligiga salbiy ta'sir kilmasa, bunday kontsentratsiya moddalarning yul ko'ysa buladigan kontsentratsiyasi deb ataladi (YKBB) Sobik SSSR da 700 ga yakin moddalarga YKBB belgilangan edi.

TSexdan, shamollatish sistemasi orkali surib olingan xavo atmosferaga chikarib yuborishdan oldin zararli moddalardan tozalanadi, retsirkulyatsiya uchun tsexga kayta yuboriladigan xavoda zararli moddalarning mikdori 0,3 YQBB dan oshmasligi kerak.

To'qimachilik sanoati tsexlarida tolali materiallarni titish, savash, tarash, pahmoqlash (vorsovanie) jarayonlarida chang, buyash, buyoklar tayyorlash, oxorlash, tuklarini kuydirish (opalivanie) jarayonlarida ximiyaviy zararli gazlar ajralib chikadi. Bu zararli moddalar ishchilar fiziologiyasiga ta'sir kilib, organizmni zaxarlanishiga olib kelishi mumkin.

Tukimachilik sanoatida, ayniqsa, uning boshlangich jarayonlarida eng kup tarkalgan zararli modda — changdir. U xamma ishlab chikarish tsexlarida xamda korxonada x,ududida atmosferada uzok vaktlar kunmay, uchib yurishi mumkin.

CHang zarrachalari tarkibiga kura organik va mineral kislardan iborat. Bunda uning asosiy kismini organik modda bulmish tola va uning bulakchalari (paxta changida 96—98%) tashkil kiladi. U murakkab tarkibli bulib, turli shakl va kattaliklarda uchraydi.

CHangga gigienik baxo berilganda uning tarkibi asosiy rol' uynaydi. Uning organik kismi tsellyulozadan tashkil topgan bulib, u organizmga zararli ta'sir kilmaydi, lekin ularda mogor zamburug'lari va sporalari mavjud bulishi mumkin, bu esa organizm xaroratini oshiradi, bosh ogrigi xamda titrok. tutish xollariga olib

keladi. Paxta tolasi changidan paydo buladigan bunday kasallik bissinoz deb ataladi. Bundan tashqari paxta changida, paxtaga ishlov berish natijasida dolgan zararli moddalar (pestitsid, gerbitsid va defoliantlar) bulishi mumkin.

Changning tarkibidagi mineral kismida kremniy ikki oksidi SiO_2 bulib, uning nafas yullari orqali upkaga ma'lum konsentratsiyada kirib borishi pnevmokonioz kasalligi xavfini tugdiradi. Chang tarkibida bu modda qancha kup bulsa, kasallik xavfi shuncha ortadi.

Ayrim xollarda, changning mayda zarrachalari kishi upkasining al'veollariga kirib, ularni berkitishi natijasida, upkaning ish faoliyatini pasaytiradi, ya'ni kishi upkaning tulik xajmida nafas ololmaydi, natijada borib-borib xastalikka uchrashi, ya'ni pnevmokonioz kasaliga duchor bulishi mumkin.

Changlarni kishi tanasiga ta'sirini aniklashda nafakat ularning fizik xususiyatlarini, balki ularning ulchamini xam xisobga olish kerakdir. Bu borada eng xavfli, kattaligi 5 mkm gacha bulgan changlardir, chunki ular upkaning kattaligi 4—5 mkm bulgan al'veollarga bemaolol kira oladilar. Bundan katta bulgan chang zarrachalari esa yukori nafas yullarida va bronxlarda ushlanib koladi va tanadan chikarib yuboriladi. Yana chang zarrachalarining kattaliklari, ularning xavoda kanchalik kup ushlanib turishini belgilaydi, bu esa ularning organizmga kirish imkoniyatini kuchaytiradi. Tadkikotlar natijasi chang zarrachalari kanchalik mayda bulsa, ular xavoda shuncha kup ushlanib turishligini kursatadi.

Tukimachilik korxonalarida paxta changi uchun k.uyidagi yul kuysa buladigan konsentratsiya (YQBK) qabul kilingan. Bu esa chang tarkibidagi SiO_2 ga boglikdir. Sanitariya me'yorlari SN-245—71 da berilishicha: agar chang tarkibidagi SiO_2 2% dan kam mikdorda bulsa, YQBK-6 mg/m³, 2 dan 10% gacha bulsa — 4 mg/m³ va 10% dan ortik bulsa, unda YQBK-2 mg/m³ bulishi keltirilgan.

Tukimachilik sanoatida oxor tayyorlashda sulfat kislotasi, xlorid va sirka kislotalari, uyuvchi natriy va boshka moddalar ishlatilib, ular tsex xavosiga zararli gaz va buglar ajratib chikaradi.

Tola va iplarni xamda matolarni buyashda oltingugurt birikmalari (Na_2S), xlorli birikmalar (NaCl), uyuvchi ishqor (NaOH) va boshka kimyoviy moddalar kullaniladi. Ayni paytda bu moddalar kishi tanasiga salbiy ta'sir qilishi va organizmni zaxarlashi mumkin.

Turli balandlikdagi va chastotadagi tovushlarning tartibsiz ravishda qo'shilib eshitilishi shovqin deb ataladi. Tovush fizik xolat sifatida havoda, suvda va boshka tarang muhitdan kelib chiqadigan to'lqinsimon harakatlardan iboratdir. U tovush chiharadigan jismlarning tebranishi natijasida hosil bo'ladi va bizning eshitish organimiz tomonidan qabul qilinadi.

SHovqin kasbiy kasallikka olib kelishi mumkin. U boshni aylantirib, miyada og'riq turg'izadi va quloq shangib asab sistemasiga ham yomon ta'sir qiladi. Ayniqsa fiqoni to'plab, aqlan ish bilan shug'ullanishga imkon bermaydi, butun diqqat-e'tiborni berib ishlash lozim bo'lsa, ish qobiliyatini (10—60% ga) pasaytirib yuborishi mumkin. Uzoq vaqt mobaynida shovqinning odamga sezilmas darajada ta'sir qilishi asab sistemasini ishdan chiqishiga olib kelishi mumkin. Ayniqsa qattiq va kuchli tovushlar, shuningdek to'xtovsiz ravishda bir xilda chiqib turadigan tovushlar odamga yomon ta'sir qiladi.

SHovqin ta'sirida turli a'zolar va sistemalarning, masalan hazm qilish (oshqozon shirasi seqoetsiyasining o'zgarishi), qon aylanishi (qon bosimining ko'tarilishi) va shunga o'xshashlarning normal faoliyati buziladi.

SHovqinlar kelib chikishi bo'yicha asosan uch xil bo'ladi:

1. Sanoat shovqini.
2. Transport shovqini.
3. Maishiy shovqinlar.

SHu bilan birga gaz va suyuqliklarning harakati natijasida ham shovqin chiqishi mumkin. Bunday shovqinlar aerodinamik shovqinlar deb ataladi.

Tuqimachilik sanoati korxonolari ham bundan mustasno emasdir. SHovqin darajasi yuqori bo'lgan tsexlarda ishlovchi ishchilarda kasbiy kasallik "shovqin

kasalligi" uchrab turadi. SHu bilan birga ayrim ish joylarining surunkali titrashi natijasida "vibratsion kasallik" uchrab turadi.

SHovqin — bu tovushdir. Tovush esa havodagi zarrachalarning mexanik tebranishidir. Bu tebranishlar tulqinsimon ravishda tarqalib kishi qulog'iga borib yetadi va quloq pardasini bosadi, natijada tovush eshitiladi. Tovush eshitilishi uchun tulqin ma'lum kuchga ega bo'lishi keraq Bu kuch esa tovush tulqinining paskal'da (Pa) o'lchanadigan bosimi bilan belgilanadi.

Kishi qulog'i tovush bosimining 2×10^{-5} dan 2×10^5 Pa gacha bo'lgan diapozonini qabul qila oladi. Pastki chegara ya'ni ($R_0 = 2 \times 10^{-5}$ Pa) kishi qulog'i ilgay oladigan minimal tovush bosimi — eshitish chegarasi deb ataladi.

Yuqorigi chegara, ya'ni ($R_{tax} = 2 \times 10^5$ Pa), kishi qulog'i sezguncha chiday oladigan maksimal tovush bosimi — og'riq chegarasi deb ataladi. Og'riq chegarasidan yuqorida quloqdan qon sizib chikishi va quloq pardasining yirtilishi hollari bo'lishi mumkin. Ikki kishining o'zaro suhbat odatda 0,1 Pa bosimda kechadi.

CHastotalari bo'yicha kishi qulog'i 20 dan 20000 Gerts oralig'idagi tovushlarni qabul qiladi. Bu kichik va o'rta yoshdagi odamlarga xos. Kishi hariganda esa yuqorigi chegara 15000 Gts larga tushib qoladi, shuning uchun ko'pchilik kishilar hariganda yomon eshitadigan bo'lib qoladi. Kishi qulog'i ayniqsa 37,5—9600 Gts oralig'idagi chastotalar diapazonini yaxshi qabul qiladi. 20 Gts dan kichik va 20000 Gts dan katta chastotali tovushlar infratovush va ul'tratovush deyiladi. Bu oblastlardagi tovushlarni kishi qulog'i eshita olmaydi.

Kishi qulog'ining eshitish qobiliyatini tovush bosimining absolyut o'zgarishi bo'yicha emas, balki uning nisbiy o'zgarishi bo'yicha olish qabul qilingan. Tovush bosimining bunday nisbiy o'zgarishi shovqin kuchining boshlang'ich darajasi deb ataladi va etalon sifatida qabul qilingan.

Boshlang'ich daraja (etalon) qilib tebranish chastotasi 1000 Gts, tovush bosimi 2×10^{-5} Pa qabul kilingan. Bu eshitish qobiliyati normal bo'lgan kishilardagi eshitish

chegarasi bilan mos keladi. Bu chastotasi 2000 Gts bo'l-gandagi tovush quvvati 10 Vt/m ga mos keladi.

SHovqin kuchini o'lchash uchun logarifmik shkala qabul qilingan, hap bir keyingi pog'ona, oldingi pog'onadan o'n marta kattadir. SHovqinlarning bunday nisbati shartli ravishda bel (B) deb atalib, kuyidagi formula bilan ifodalanadi:

$$B = \lg \frac{J_i}{J_0}$$

bu yerda J_j — tovush bosimining o'lchangan qiymati, Pa.

J_0 — tovush bosimining etalon qiymati, 2×10^{-5} Pa.

Agar bir qancha shovqinlar birgalikda ta'sir qilganda, birinchisi boshlang'ichidan, ya'ni asos qilib olinganidan 10 marta katta bo'lsa, $J_j/J_0 = 10$ Bunda shovqin 1B ga katta deb olinadi, chunki $\lg 10 = 1$. Agar $J_j/J_0 = 100$ bo'lsa 2B ga katta deb olinadi, chunki $\lg 100 = 2$ va hokazo. Bel ancha katta qiymat. Odamning qulog'i odatda tovush kuchi o'zgarishining 0,1 B ni payqaydi. SHuning uchun tovush kuchining o'lchov birligi qilib amaliyotda Belning undan bir bo'lagi bo'lgan detsibel (dB) qabul qilingan. Eshitishning yuqorigi maksimal chegarasi 13 B (130 dB) ga turi keladi. Bundan yuqori shovqinlarda quloqda og'riq paydo bo'ladi.

CHastotasi bo'yicha shovqinlar uch sinfga bo'linadi:

past chastotali — 350 Gts gacha;

o'rta chastotali — 350 dan 800 Gts gacha;

yuqori chastotali — 800 Gts dan yuqori bo'lgan chastotali.

Inson tanasiga ta'siri bo'yicha yuqori chastotali shovqinlar zararli hisoblanadi.

SHovqinlar tovush bosimi, chastotasi, shovqin turi (tonal, keng mintaqali, impul'sli) va ta'sir qilish vaqtining uzunligi bilan normalashtiriladi.

Har xil chastotali shovqinlar kishi qulog'iga har xil ta'sir qiladi. SHuning uchun har bir o'rta geometrik chastotaning oktava chizig'i shovqinining yo'l qo'ysa bo'ladigan me'yor belgilangan.

Oktava chizig'i — tovushlar chastotasining yuqorigisi pastkisidan ikki marta katta qiymatga teng bo'lgan intervalidir, ya'ni

$$\sqrt{\frac{f_{\text{ююкор}}}{f_{\text{ннстк}}}} = 2$$

SHovqinlarni me'yorlashtirishda o'rta geometrik chastotalarning quyidagi oktava chiziqlari qabul qilingan: 63, 125, 250, 500, 1000, 2000, 4000, 8000 Gts.

Oktava chiziqlarining o'rta geometrik chastotasi quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$f = \sqrt{f_{\text{ююкор}} * f_{\text{ннстк}}}$$

SHovqinlar chastotasining spektri bo'yicha keng mintaqali (bunda tarkibida ko'p tovush chastotalari bo'ladi, masalan, to'quv dastgohidan chiqayotgan shovqin) va tonal turlariga bo'linadi. Tonal shovqinlarda ma'lum ton aniq eshitilib turadi. Masalan, ventilyatordan ajralib chiqayotgan shovqin. Tonal shovqin keng polosali shovqinga nisbatan kishi organizmiga ko'proq salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Gost 12.1. 003—76 bo'yicha ishlab chiqarish korxonalarining doimiy ish joylarida va korxonalar xududida shovqinning quyidagicha yo'l qo'ysa bo'ladigan darajalari qabul qilingan.

To'qimachilik sanoati korxonalarida shovqinni umumiy darajasiga qarab chamalab baholash mumkin. Buning uchun shovqin o'lchash asbobining A shkalasidan foydalaniladi va bu dBA da o'lchanadigan standartlashtirilgan va barcha shovqin o'lchash asboblarida mavjuddir.

To'qimachilik sanoatining yigiruv-pishituv tsexlarining ish joylarida tovush darajasi A shkalasi bo'yicha 80—98 dBA, tayyorlov-tukuv va yigiruv tsexlarida 75—95 dBA, piliklash va piltalash tsexlarida 80—100 dBA ni tashkil etadi. SHovqin chikishi bo'yicha eng yuqori darajani to'quv tsexlari tashkil qiladi. Ayniqsa mokili avtomatik to'quv dastgohlari o'rnatilgan tsexlarda umumiy shovqin darajasi yuqori chastotali spektrlarda 100—104 dBni tashkil etadi. Bu esa ishchilarning organizmiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ishlab chikarishga yangi joriy qilingan mokisiz va pnevmatik to'quv stanoklarida shovqin 15—20 dBA kamroq.

SHovqinga qarshi kurashish quyidagi usullar bilan amalga oshirilishi mumkin: oqilona akustik rejalashtirish (shovqinli uskunalarni to'g'ri joylashtirish);

manbaning shovqin chikarishini kamaytirish;
shovqinni ixotalash;
shovqinni yutish;
shovqinga qarshi to'siqlar qo'llash;
shovqinni bug'uvchi moslamalar qo'llash;
shovqinga qarshi shaxsiy himoya vositalari qo'llash.

Ratsional akustik rejalashtirish. Korxonada ob'ektlarini rejalashtirish, bosh rejani loyihalashda shovqin chiqaruvchi ob'ektlarni lokallashtirish, ma'lum joylarga, ya'ni boshqa ob'ektlarga shovqinning zarari tegmaydigan qilib joylashtirish talab qilinadi. Bunda birinchi navbatda "shamolning guldastasi", ya'ni shu aholi punktida shamolning asosiy yo'nalishi hisobga olinadi.

SHovqinli tsexlar bilan "tinch" xonalar (idoralar, konstruktorlik byurolari, kutubxona, tibbiyot xonasi va hokazolar) orasidagi masofa shovqinni kerakli miqdorda kamaytiriladigan darajada bo'lishi kerak. Agar korxonada shahar qududida bo'lsa (tuqimachilik korxonalari aksar shahar qududi ichida joylashgan bo'ladi), shovqinli tsexlar aholi yashovchi uylardan uzoqroqda, ya'ni korxonada hududining ichkarisida joylashtirilishi kerak. Agar bunday tsexlar bir binoning ichida joylashtirilishi kerak bo'lsa "tinch" xonalar shovqinli xonalardan shovqinni yaxshi ixotalovchi to'siqlar bilan ta'minlanishi yoki boshqa, odam kam bo'ladigan xonalar, sanuzel va koridorlar bilan ajratilgan bo'lishi kerak.

Umuman shovqin manbasidan L , m uzoqlikda qanchaga so'nishini quyidagi formula bilan aniqlash mumkin. Masalan, to'quv tsexidan 30 m uzoqlikda korxonada hovlisida joylashgan sartaroshxonadagi shovqinning kuchini aniqlash. SHovqin manbaidan 1 m masofadagi kuchi 94 dB.

$$L_x = L_{shm} - 20 \lg L - 8 = 94 - 20 \lg 30 - 8 = 56,4 \text{ dB}$$

bu yerda L — shovqin manbai bilan biror ob'ekt orasidagi masofa, m;

L_{shm} — shovqin manbaining shovqin chiqarish kuchi darajasi, dB (odatda undan 1 m masofada o'lchanadi);

L_x — shovqinni L masofada so'nishi, dB.

SHovqin ko'p chiqaradigan tsexlar atrofi yaxshi ko'kalamzorlashtirilgan, bargi qalin daraxt va butalar bilan qoplangan bo'lishi kerak.

Manbaning shovqin chiharishini kamaytirish. Manbaning shovqin chiqarishini kamaytirish usuli eng radikal usullardan hisoblanib, u shovqinni keskin kamaytirish imkonini beradi. Bu shovqinli mashinaning konstruksiyasini yoki texnologik jarayonni uzgartirish orqali amalga oshiriladi. Masalan, mashina va uskunalardagi zarbali harakatlarni zarbasiz harakatlarga almashtirish, agregatlarning kichik tezlanishli kinematik sxemalarini yaratish va h k.

Manbadagi shovqinni pasaytirishda eng qulay usullardan biri detallarning titrashini kamaytirishdir. Buning uchun, metaldan yasalgan detallarni ichki ishqalanish koeffitsienti katta bo'lgan materiallar (rezina, bitum, bitumlashtirilgan kigiz, karton) bilan qoplanadi.

Plastmassadan yasalgan shesternyalarni qo'llash va shesternyalar yuzasini rezina bilan qoplash shovqinni sezilarli darajada pasaytiradi.

Pnevmatik yigiruv mashinalarida halqali yigiruv mashinalariga nisbatan shovqin 10—20 dB kamdir.

Keyingi yillarda kupgina fabrikalarda shovqinni kamaytirish maqsadida T-150 qushib urash mashinasining ekstsentrik mexanizmi ariqchali barabanacha bilan almashtirildi. Bunda asosiy shovqin manbai bo'lgan ip yo'nal-tirgich, ekstsentrik va uning vali kerak bo'lmay qoldi va ular olib tashlandi.

To'qimachilik sanoatida shovqin, asosan mexanik va avtomatik to'quv dastgoxlaridan chiqadi. Dastgoq mexanizmlarining zarbali ish printsipi ayniksa tepki mexanizmi, harakat uzatuvchi shesternyalar, batanning va mokining urilish paytlarida shovqin oshib ketadi. AT-120-5 avtomatik dastgohning ish paytidagi shovqin darajasi 98 dB bo'lsa, mokisiz ishlaganda esa 83 dB ga, batan va pogonyalkasiz ishlaganda 79 dB, tepki mexanizmsiz ishlaganda esa 65 dB gacha kamaygan.

Avtomatik to'quv dastgohlari ishining zarbali printsipining o'zgarishi, mokisiz dastgohlarga almashtirish poplin darajasini sezilarli kamaytirish imkonini beribgina qolmay, shu bilan birga uning ixtisus unumdorligini oshirishga imkon beradi.

IV. O'QUV-METODIK QISMI

Таълим оловчиларнинг ўқув-билиш ва ўқув амалий фаолиятларини фаоллаштиришда кўмак берувчи таълим методларини танлаш муҳим аҳамият касб этади. Фаол таълим методларни мақсадли йўналтирилган танлаш белгиланган ўқув мақсадга эришишни кафолатлайди.

Ҳар қандай таълимнинг мақсади – таълим оловчиларда билим, кўникмалари ва малакаларини шакллантиришдан иборатдир. Ўқув фаолиятида таълим мақсаднинг барча жиҳатлари амалга ошар экан, турли таълим методларни биргаликда қўллаш зарур. Шунинг учун, таълим методини танлашда энг асосий омил бўлиб аниқ ўқув машғулотининг дидактик вазифаси хизмат қилади.

Фаол методини танлашда унинг самарадорлик даражасини эътиборга олиш ҳам аҳамиятга эга. Ўтказилган таҳлиллар шуни кўрсатадики, ўқув материали оғзаки баён этилганда талабалар маълумотнинг 5-10 % ни эслаб қоладилар. Ўқув адабиётларидан мустақил ўқиш маълумотнинг 10-15 % ни, кўргазмали материалларэса маълумотларнинг 20-25 % ни ўзлаштиришга имкон беради. Амалий методлар энг самарали метод ҳисобланиб, талабалар онгида маълумотнинг 75 % и сақланиб қолади. Лекин, ўқув-материалларини талабалар томонидан мустақил ўрганиш, амалий машғулотларини мустақил бажариш методлари ундан ҳам самаралироқ ҳисобланади, бунда 90 % билим ўзлаштирилади ва кўникма шаклланади. Демак, талабаларни мустақил ўрганиш, изланиш, муаммоларни мустақил ечиш, амалий таъсирларига йўналтирилган фаол методларни қўллаш яхши самара беради.

1. Мотивация методи.

Машғулотлар таълим оловчилар билан қизиқарли, ҳаттоки, дарсга тааллуқли бўлмаган мавзулар тўғрисидаги суҳбат билан бошланиши лозим. Иложи бўлса, дарсга боғлиқ бўлган мавзулар юзасидан суҳбатни бошлаш керак. Масалан, қизиқарли кашфиёт ёки янгилик танланиши мумкин. Буларнинг барчаси биринчи дарс мобайнида таълим оловчиларнинг кайфиятига, шу соҳага

қизиқишига ёки кейинги дарсларда таълим олувчилар ўрганадиган фанига эътиборини қаратишга ёрдам беради.

Агар, дарс биринчи бор янги ўқув гуруҳида ўтилатган бўлса, ўқитувчи қисқача ўзини таништириб ўтиб, таълим олувчиларга ҳам ўзларини таништириш имкониятини бериш керак. Бу таълим олувчиларда ишонч туғдиради, таълим олувчилар ўзларига билдирилатган ҳурматни ҳис қиладилар. Назарий фан мақсадини баён этиш орқали мотивация ва муайян мавзуга кириш амалга оширилади. Интринли (ички) ва экстринли (ташқи) мотивация учун сабаб ва аргументлар топишга ҳаракат қилиш лозим. Мотивация қилиш билан ўқиш ва ўрганишга бўлган тайёрлик учун шарт-шароит яратилади.

Сўнгра ўқитувчи таълим олувчиларга фан бўйича янги ўқув материални тушунтиради, қисқа маърузалар ўқийди, мунозаралар уюштиради, ўқув суҳбатлари, ўйин – машғулотлари ва муаммоларни ҳал қилиш ҳақида суҳбатлар ўтказилади. Кейинги дарсларда янги мавзунини бошлашдан аввал ўтилган мавзулар қисқача, умумлаштирилган ҳолда қайтарилиши керак.

Таълим олувчиларга мавзуларга мос тарқатма материаллар тарқатилиши лозим. Бу ўқув жараёнини енгиллаштиради. Мавзуга кирилмай туриб, тарқатма материаллар тарқатилмайди. Уларни мавзуга монанд равишда бирин кетин тарқатиш, уларни ўқиб чиқиш учун етарли дақиқалар бериш ва таълим олувчилар эътиборини ахборотга қаратиш учун овоз чиқариб ўқитиш мақсадга мувофиқ бўлади.

Таълим олувчиларга тафаккур қилиш ва қайта ишлаш имкониятини яратувчи топшириқлар ўзлаштирилган билимларни фаол равишда қайта ишлаб бориш учун зарурдир. Улар билимларни қабул қилишнинг нисбий пассив фазасидан сўнг актив фаза келиши учун имконият яратиб беради. Гуруҳларда ишлаш ёки мустақил равишда топшириқларни ечиш ва натижаларни тақдим этиш самарали ўқитиш методлари ҳисобланади.

2. Гуруҳий ишлаш методи.

Ўқитиш жараёнида гуруҳ бўлиб ишлаш методининг аҳамияти тобора ошиб бормоқда. Фанлар бўйича назарий билимларни беришда ва амалий машғулотларни ўтказишда гуруҳий ишлар олиб борилиши мумкин. Бу борада барча таълим олувчилар бир неча кичикроқ ўқув гуруҳларига тақсимланади ва бу гуруҳлар мустақил ишлайдилар. Кичик гуруҳларнинг иш натижалари кейинроқ бутун гуруҳ доирасида муҳокама қилиниши мумкин.

Гуруҳий ишлар махсус билимлар билан бир қаторда амалий кўникмалар ўрганилиши керак бўлганда, шунингдек таълим олувчиларда мустақил ишлаш қобилиятларини ривожлантириш учун қўлланилади. Бир нечта таълим олувчилар биргаликда ишлаган пайтда, уларнинг шахсий хусусиятлари ва характерлари орасида ўзаро ҳамкорлик вужудга келади. Шунинг учун гуруҳий иш ташкил қилиш кўра мураккаброқдир.

Гуруҳли бўлиб ишлашда иккита ҳолат фарқланади:

- бир хил мавзуда олиб бориладиган гуруҳ иши;
- бир хил мавзуда олиб бориладиган гуруҳ иши

Бир хил мавзуда олиб бориладиган гуруҳ ишида бир неча гуруҳларга бир хил топшириқлар берилади. Топшириқ ва машқларни ечиш шароитлари ҳам бир хил бўлади. Шундай қилиб ҳар хил ечимлар гуруҳ иши тугаганидан сўнг бир-бири билан таққосланиши мумкин. Кўпинча бундай ҳолларда рақобат ҳолати юзага келади. Ечим топилиши вақтида эса рақибликка ўхшаш ҳолатлар вужудга келади. Бу ерда муҳим нарса шуки, гуруҳлардаги таълим олувчиларнинг билим ва кўникмалари имкон қадар бир хил бўлиши керак.

Ҳар хил мавзуда олиб бориладиган гуруҳ ишида бериладиган иш топшириғи бир неча қисмларга бўлинади. Фақат бу қисмлар бирлаштирилгандагина топшириқнинг мазмуни аниқ кўринади.

Ҳар бир гуруҳ бу ҳолда қисман топшириқ олади ва мустақил равишда унинг устида ишлайди. Лекин бу ҳолда ишларнинг тақсимоти анча мураккаб бўлади, ечимга таъсир қилувчи кўпинча фарқ шарт-шароитлар ва фарқлар ҳосил бўлади.

Бундай ёндашувда бир гуруҳ таълим олувчилари фақат ўзларига берилган топшириқларни билишади холос, яъни бошқа гуруҳлар ишлари ҳақида деярли хабарлари бўлмайди. Шунинг учун ҳам натижалар қисман бирлаштирилиши зарур.

Гуруҳий ишда берилган топшириқлар пухталиқ билан ўйлаб чиқилган бўлиши керак, чунки уларда таълим олувчилар орасида мулоқот ва ҳамкорлик қобилиятини ривожлантириш каби мақсадлар бор. Гуруҳий иш учун қуйидаги ўқитиш шакллари мос келади:

1. Устахона шаклидаги гуруҳий иш:

Устахонада бажариладиган амалий машғулот доирасидаги вазиятга ўхшаш келажак фаолият бўйича сценарийлар ва муаммолар ишлаб чиқилади. Бунинг учун долзарб муаммолар ўрганиб чиқилиши керак. Бу муаммолар таълим олувчиларнинг дастлабки билимлар даражасини инобатга олган ҳолда ва ижодий фикрлаш билан боғлиқ ҳолда таълим олувчиларни ечимларга ундашлари керак.

2. «Режа ўйини» шаклидаги гуруҳий иш:

«Режа ўйинлари» белгиланган вазиятда турли хил ечимларни синаб кўриш имконини беради. Таълим олувчилар бунда муаммога бўлган ҳар хил таъсирлар натижага қандай таъсир қилишини ўрганади. Бунинг учун сабаб ва оқибат бири-бири билан боғлиқ равишда кўрилиши керак. Масалан ҳар хил компьютер дастурлари орқали корхона ва фирмалар фаолияти соҳасидаги масалаларни «ўйин орқали» синаб кўриш имкониятини яратади. Таълим олувчилар ўйин жараёнида ўзаро рақобат муносабатида бўладилар.

3. Лойиҳа шаклидаги гуруҳий иш:

Лойиҳавий иш бир лойиҳани аниқ белгиланган чегара доирасида ишлаб чиқишни талаб қилади. Лойиҳа шаклидаги гуруҳий иш жуда ҳам катта аҳамиятга эга, чунки бунда вазифалар топшириқлар мажмуаси бўйича аниқ тақсимланиши керак бўлади.

Туқимачилик материалларнинг асосий тузилиш элементлари бу тола ва ишлар.

Туқимачилик толаси - эгилувчан ва пишиқ, кундаланг кесими кичик ва узунлиги чегараланган жусм булиб, у туқимачилик материалларни ишлаб чиқаришда қулланилади. Синфлаштиришнинг асосида - толаларнинг келиб чиқиши (олиниш усули) ва кимевий таркиби қуйилган. Келиб чиқиши бўйича ҳамма толалар табиий ва кимевийга булинади.

Табиий толаларга- усимликлар, жониворлар ва минераллардан олинадиган толалар киради.

Кимевий толаларни – заводларда табиий еки синтетик юкори молекулали бирикмалардан (полимер) шакллантириш йули билан олинади. Усимлик толалари целлюлозадан ташкил топган. Уларни усимлик уругининг сиртидан (пахта), поясидан (зигир, каноп, жут ва бошқалар) ва баргида (абака, сезал) оладилар. Жониворлардан олинадиган толалар оксиллардан ташкил топган : кератин (жун), фиброин ва серициндан (ипак).

Сунбий толаларни – табиатда тайер холда учрайдиган юкори молекулали бирикмалардан (целлюлоза, оксил) оладилар. Синтетик толаларни – табиатда учрайдиган (кумир, газ, нефт) кичик молекулали бирикмалардан юкори молекулали бирикмаларни синтез килиб оладилар.

Синтетик толаларни гетерозанжирли ва карбозанжирли толаларга ажратилади.

MAVZU: Tabiyi tolalar turlarini organoseptik va laboratoriya usulida aniqlash.

Ishning maqsadi: tolalar tuzilishini organoseptik va laboratoriya usulida tekshirish.

ASOSIY MA'LUMOTLAR:

To`qimachilik tolalar tuzilishini o`rganish uchun mikroskopiya keng qo`llaniladi.

Mikroskopiya deb, juda kichik ob`ektlarni yoruglik, elektron yoki boshqa mikroskoplar yordamida tekshirish, rasmga tushirish yoki kattalashtirib ko`rishga aytiladi.

Mikroskopni umumiy kattalashtirish ko`rsatkichlarining J A D V A L I

Okulyar kattalashtirishi	Ob`ektiv kattalashtirishi	Umumiy kattalashtirish
7^x	5	56
10^x	8	86
18^x	20	300

Tajriba o`tkazish uchun ko`riladigan maydonning kattaligi muxim ahamiyatga ega: ko`riladigan maydon qancha katta bo`lsa, ob`ektни topish shuncha oson bo`ladi. Quruv maydoni - bu mikroskopni okulyarda ko`rinadigan, yoritilgan doira. Quruv maydonining diametri (mm) quyidagicha xisoblanadi:

$$D = \frac{D_0}{U_1}$$

bunda:

D_0 -okulyar quruv maydoni diametri, mm;

U_1 – ob`ektivni kattalashtirish.

PREPARAT TAYYORLASH METODIKASI


Tajriba o`tkazishdan oldin predmetli va qoplovchi shishalar toza oq gazlama bilan artiladi. Keyin predmetli shishaga pipetka bilan 1-2 tomchi distillangan suv yoki boshqa suyuqlik (odatda glitserin) tomiziladi. Tolalarning ko`pchiligi uchun suv qo`llaniladi, ammo ayrim tolalar (jun, ipak) suvda ko`p shishadi, shuning uchun ularning preparatini tayyorlaganda glitserin qo`llaydilar.

Predmetli shishadagi suyuqlikka bir necha tola joylashtiriladi. Keyin igna bilan tolalar bir-biridan ajratiladi va to`g`rilanadi. Chap qo`lga predmetli shishani olib, o`ng qo`lning katta va o`rtancha barmoqlar bilan qoplovchi shishani bikinlaridan ushlab, predmetli shishani ustiga sekin qo`yiladi.

Qoplovchi shishani tagida havo pufakchalari bo`lmasligi kerak, ular ob`ektни ko`rishga xalaqit beradilar. Ortiqcha suyuqlik filtr qogoz bilan ketkaziladi. Tayyor preparat mikroskopning stolchasiga qo`yiladi va ob`ekt kuzatiladi.

To`qimachilik tolalarini yoruglik va mikroskop yordamida tuzilishini o`rganganda quyidagi o`ziga xos xususiyatlar ma`lum bo`ladi.

Paxta tolasi - turli daraja yalpoklangan naychaga o`xshaydi (2-rasm). Uning devorchalarini qalinligi tolaning etilishiga bogliq.



Pishmagan paxta tolalari yassi, lentasimon, yupqa devorli ekanligini va oʻrtasida keng kanal borligini koʻramiz. Tolalar pishgan sari devorlariga tsellyuloza yigiladi va devorlari qalinlashadi, kanali torayadi, tolalar buramdor boʻlib qoladi. Pishgan tolalarning boʻylama koʻrinishi spiralsimon, buralgan, yassi naychalardan iborat. Pishib oʻtib ketgan tolalar, oʻrtasida ingichka kanali bor, tsilindr shaklini oladi.

Tolalarning koʻndalang kesimi turli shaklda boʻladi: pishmagan tolada keskin yalpoq, lentasimon shaklda; oʻrtacha pishgan va pishgan tolada - loviya shaklida; pishib ketgan tolada - ellips yoki deyarli doira shaklida.

2-rasm. Paxta tolasining tuzilishi.

Zigirning elementar tolasi oʻrtasida tor kanali va yoʻngonlashgan tirsaksimon joylari boʻlgan oʻsimlik hujayrasini tashkil qiladi. Tolaning uchlari oʻtkir, kanali esa ikki tomonidan berk boʻladi (3-rasm).

Koʻndalang kesimida - oʻrtasida kanali bor, 5-6 yokli koʻpburchakdan iborat. Elementar tolalarning uzunligi 1-25 mm boʻladi. Zigir poyasidan, dastlabki ishlov berganda texnik tolalarni ajratadilar.

Texnik tola - maxsus moddalar (pektin va legnin) bilan oʻzaro elimlangan elementar tolalarning tutamidan tashkil topgan boʻladi.

3-rasm. Zigir tolasining tuzilishi

Jun tolasini - yoʻngonligi va tuzilishiga qarab, jun tolalari qoʻyidagi tiplarga boʻlinadi: momiq, oraliq tola, dagal tuk va oʻlik tola (4-rasm).

Momiq - eng ingichka buramdor (jingalak) tola boʻlib, koʻndalang kesimi doira shakliga ega.



Momiq ikki qatlamdan: tashqi - tangachali va ichki qobiq qatlamlaridan tashkil topgan.

Tangachali qoplam bir-birinsh orasiga ureatilgan, chetlari notekis boʻlgan xalkachalar (tangchalar)dan tashkil topgan. Qobiq qatlam - duksimon hujayralardan tashkil topgan.

4-rasm. Jun tolasining tuzilishi

Oraliq tolada - tangachali va qobiq qatlamdan tashqari, yana uchinchi qatlami bor - oʻzak. Bu qatlam tolasining oʻrtasida boʻlib, uzuk-uzuk joylashadi. Bush oʻzak qatlami - koʻrib qolgan plastinkali hujayralardan tashkil topgan.

Hujayralar oraligi havo, moy va boshqa moddalar bilan toʻldirilgan.




Dagal tuk - momiqsimon ancha dagal va yo`gonroq bo`lib, deyarli buramdor (jingalak) bo`lmaydi. U uch qatlamdan: plastinasimon tangachali qatlam, qobiq va yaxlit, yaxshi rivojlangan o`zak qatlamidan tashkil topgan.

O`lik tola - eng dagal, yo`gon v buramlari (jingalak) bo`lmagan tola. Uni tangachali qatlami katta-katta plastinkalaridan tashkil topgan. qobiq qatlami tor doirasimon, o`zak esa juda rivojlangan bo`ladi.

Dagal tuk va o`lik tolaning ko`ndalang kesimi noto`gri oval shaklida bo`ladi. Ipak - pillani chuvatish natijasida olinadigan iplar. Pilla iplari - ikki, bir-biriga parallel joylashgan elementar iplardan tashqi topgan. Elementar iplar (fibroindan tashkil topgan) seritsin qatlami bilan bir-biriga elimlangan (5-rasm).

Pilla ipining ko`ndalang kesimi ikkita aylanma burchakli uchburchak va ularni qoplagan



Har yili to`qimachilik sanoatida qo`llanilayotgan turli tolalarni miqdori ko`payib borayapti. Bu tolalar sof yoki aralashma xolatda ishlatiladi. Aralashmani xar bir tarkibiy qismi buyumlarga o`ziga xos xossalarni beradi. Shu sababli ma`lum xossalarga ega bo`lgan buyumlarni yaratganda, aralashmadagi tolalarni o`zaro miqdoriy munosabatini nazorat qilish kerak.

Hozirgi zamonda aralashmadagi tolalarni aniqlash uchun turli usullar ishlab chiqarilgan. Asosiy va eng oddiy quyidagi usullar: a) tashqi ko`rinishi; b) yonish xarakteri; v) turli reaktivlarda erishi; g) bo`yalishi bo`yicha.

Maxsus tajribalarda tolalarni aniqlash uchun boshqa usullar qo`llaniladi, masalan: erish xarorati, ultra-binafsha nurlarida nurlanish va boshqa.

Ammo bu usullar juda murakkab va shu sababli kam qo`llaniladi.

Tashqi ko`rinishi bo`yicha aniqlash uchun mikroskopiya qo`llaniladi, bunda tolalarni bo`ylama ko`rinishi va ko`ndalang kesimi kuzatiladi. Bu usul orqali, tashqi ko`rinishda o`ziga xos xususiyatlarga ega bo`ladi. Tolalarni xatosiz aniqlash mumkin (jun, paxta, viskoza va boshqalar). Ammo tashqi ko`rinishi o`xshash bo`lgan tolalarni (kapron, lavsan va boshqalar) aniqlash uchun boshqa usullar qo`llash kerak.

Yonish xarakteri xarakteri bo`yicha tolalarni aniqlash juda balki xech qanaqa asbob talab qilinmaydi. Ammo bu usulni asosan bir xildagi maxsulotlarni analiz qilganda qo`llash mumkin.

Yondirib xatosiz tsellyulozali va oqsilli, shuningdek, yonmaydigan (asbest, shishali tolalarni aniqlash mumkin. Shu yo`l bilan sintetik tolalarni xam aniqlash mumkin, ammo ularning turlarini ajratish qiyin.

Namunani yondirib tekshirganda, yonish xarakteriga, xidiga va yongin ta`siridan keyingi qoldiqqa axamiyat berish kerak. Asosiy to`qimachilik tolalarini yonish haqida qisqacha ma`lumotlar:

Tola turi	Yonish xarakteri	Yong`indan keyingi qoldiq	Hid
Paxta, zigir va boshqa o`simlik tolalari. Viskoza, misammiak	Alanga bilan tez yonadi	Qo`l rangli, tez parchalanadigan qoldiq	Yongan qogoz
Jun, ipak	Kichik alanga bilan yonadi	Qora, kovakli, mo`rt modda	Yongan sochni (junda kuchli, ipakda sust)
Asbest	Yonmaydi, o`zgarmaydi	-	-

Xulosa

Men «To'qimachilik sanoati maxsulotlari texnologiyasi» yo'nalishidagi barcha mutaxassislik fanlaridan olgan nazariy bilimlarimni amalda qo'llab bitiruv malakaviy ishni bajardim.

Bitiruv malakaviy ishida 3540, 3513 artikuldagi gazlamaning to'quv jarayonlarini ishlab chiqadigan kichik quvvatdagi to'quv fabrikasini loyixaladim. Bunda men to'qimaning texnik ko'rsatkichlarini tanlab, tig'ni, remizani, lamelani, 100 m xom gazlamaga sarflanadigan iplar og'irligini hisoblab, navoiyni, tanda g'altagini va bobinani hisoblab, o'timlar bo'yicha chiqindilarni, dastgox va mashinalarning ish unumdorligini hisobladim.

Iqtisod qismida texnologik jarayonlarni loyixalashni bajarishda korxonaning ishlab chiqarish dasturi tuzdim. Loyixada bir necha to'qima turi topshiriq sifatida berilgan, har bir to'qima uchun alohida dastur tuzdim. Dasturda har bir to'qima turi uchun bir yilda, bir kunda yoki bir soatda ishlab chiqariladigan to'qima miqdori va uni sotish rejasi tuzdim. Ishlab chiqarish dasturini har bir jarayonlar uchun ham tuzish mumkin. Mahsulotni ishlab chiqarish dasturini tuzishdan oldin bir yildagi ish kuni smena koeffitsienti bir smenadagi ish soati, sutkadagi ish soati aniqladim.

Hayot faoliyati xavfsizligi bo'limida menga "Ishlab chiqarish muhitining metrologik sharoitlari" mavzusi berilgandi. Ish jarayonlarining va atrof muhitning ishchilar organizmiga ta'sirini o'rganadigan fan mexnat gigisnasi deyiladi. Mexnat gigienasini qullash natijasida qulay sharoitlarni yarata oladigan, mehnat unumdorligini oshira oladigan, kasbiy kasalliklarni kamaytira oladigan yoki butunlay yo'q qila oladigan sanitariya, gigiena va davolash profilaktik tadbirlari ishlab chiqiladi. Ma'lumki, ish jarayonida kishi organizmiga tashqi muhit salbiy ta'sir qilishi, ayni paytda ayrim a'zolar charchashi ham mumkin. Ish joylaridagi mikroiklim omillarni — harorat, nisbiy namlik, havoning tezligi hamda atmosfera bosimi tashkil etadi. Bunday muhit kishi organizmiga salbiy ta'sir qilib, uni sovutib yoki qizitib yuboradi. Bundan tashqari organizmdan chiqadigan issiqlik kishi bajarayotgan ishning jadalligiga ham bogliq.

Maxsus topshiriq qismida “Oxorlash mashinalari” mavzusi bo’yicha bajardim. Bunda men kamerali va barabanli quritishli oxorlash mashinasi tanlandim va tadqiqot o’tkazish rejalashtirildim. Oxorlash mashinasidagi quritish barabanida iplardagi suyuqliklarning parchalinib qurishi va ma’lum miqdorda namlikning saqlab qolishi aniqlandim. Tayorlov bo’limida oxorlashdan so’ng qayta navoyga o’rash jarayonining qo’llanishi ipning fizik – mexanik xususiyatlariga salbiy ta’sir ko’rsatishi, ya’ni ipdagi namlikning kamayishi, ipga singdirilgan oxorning sinishiga olib kelishi amalda sezildi. Iplarda elektron qarshiliklar sodir bo’lmasligi va to’quv jarayonida ishqalanish kuchi ta’sirida elektr tok maydoni xosil bo’lmasligi uchun iplarni namlash va emul’tsiyalash tavsiya etiladi.

Bitiruv malakaviy ish menda yana bir marotaba bilim ko’nikma va malakalarni shakllantirdi.

Kelajakda men bajargan ishlar olgan nazariy bilimlarni amaliyotda qo’llab to’qimachilik sanoatini rivojlanishiga o’z hissasini qo’shishga harakat qilaman va mustaqil O’zbekistonning ravnaqi yuksalishi uchun beminnat xizmat qilishga va’da beraman.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I.A. O'zbekiston mustakillikka erishish ostonasida. T.: O'qituvchi, 2012-442b.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. T.: O'zbekiston, 2008.-180b.
3. Э.А. Оников, С.Д.Николаев. Проектирование технологических протсессов ткатского производства. М.:ГОУ ВПО Российский заочный институт текстильной и легкой промышленности, 2010.-327 с.
4. Справочник хлопчаткачества: П.Т. Букаев, Э.А.Оников, Л.А.Мальков: под редакцией П.Т.Букаева.- М.: Легпромбытиздат, 1987.-575 с.
5. R.S.Siddiqov. Texnologik jarayonlarni loyixalash. T.:Fan, 2006.-255 b.
6. Xamraeva S.A. To'quvchilik texnologiyasi:Darslik T.:Fan, 2005.-336 b.
7. Мартынова, Анна Архиповна. Строеие и проектирование тканей: Учебник длуу студентов ВУЗов. М.:Изд-во МГТУ, 1999.- 434 с.
8. Olimbaev E.SH. «Uzbekiston tukimachilik korxonolari maxsulotlari texnologiyasi» Toshkent, 2002.
9. Salomova R.S. To'qimachilik korxonalarini loyixalash fanidan (1-kism) ma'ruza matni.- Buxoro.: Texno-tasvir, 2013.-54 b.
10. Xamraeva S.A. To'qimachilik korxonalarini loyixalash fanidan (2-kism) ma'ruza matni.- Buxoro.: Texno-tasvir, 2013.-34 b.
11. Xamraeva S.A. To'qimachilik korxonalarini loyixalash fanidan (2-kism) kurs ishini bajarish uchun uslubiy kursatma.- Buxoro.: Texno-tasvir, 2013.-34 b.
12. Salomova R.S. To'qimachilik korxonalarini loyixalash fanidan (1-kism) kurs ishini bajarish uchun uslubiy kursatma.- Buxoro.: Texno-tasvir, 2013.-55 b.
13. Olimboyev E.Sh. va boshqalar "Gazlamalarni tuzilishi va tahlili" T. 2003 u.
14. Николаев С.Д., С.С.Юхин Теориуа протсессов, технологиуа и оборудование подготовительных оператсий ткачества:Учебник.- М.:Лёгкауа индустриуа, 1993.-189 с.
15. Николаев С.Д., Власов П.В.Теориуа протсессов, технологиуа и оборудование ткатского производства:Учебник.- М.: Лёгкауа индустриуа, 1995.-256 с.
16. Николаев С.Д., Хасанов Б.К., Содикова Н.Р. Ипларни тукишла тайёрлаш жараёнлари назариуаси ва технологияси. Т:Узбекистон, 2005.-197 б.
17. Оников Э.А. Высокочастотный упругий элемент длуу изменениуа натуажениуа нити утка. Текст.пром-ть. 2002. №2.
18. Оников Э.А., Саукова Л.А., Горбунова Е.О. О геометрическом методе анализа и построениуа тканей полотнуаного переплетениуа. Текст.пром-ть. 2001. №1. С.50-55.
19. E.SH. Alimboev "Gazlama tuzilishi nazariyasi" T.: " O'qituvchi "- 2010y.
20. Xamraeva S.A., Xodjiev M.T. To'qimachilik gazlamalarining umumiy texnologiyasi. T.: Ilm ziyo, 2006
21. Ochilov T., Abbosova N.G. Gazlamashunoslik. T.:O'qituvchi, 2003-13 b
22. P.T. Bukaev «Ip gazlama ishlab chikarishning umumiy texnologiyasi» T. «O'qituvchi» 184 b.

23. Mal'tseva Ye.P. Tikuvchilik materialshunosligi. T.: 1986.
24. G'aniev T.A. To'qimachilik sanoatida mexnat muhofazasi.T.: O'zbekiston, 1995.-150 bet.
25. Парфенов Д.Л. Изучение зоны формирования ткани с помощью микроскопа. Текст.пром-ть. 2001. №2. С.26-27
26. Рыбальченко В.В. Влияние статистического электричества на износ тканей из химических нитей. Изв. ВУЗов. Технологиюа легкой промышленности. 2000. №1.С.19-22.
27. Tekstil'naya promishlennost' jurnali.
28. Internet saytlari:
 - <http://www.fischer-poege.de/english/index.html>
 - <http://www.smit-textile.com/>
 - <http://www.staubli.com/Web/Textile/division.nsf>